

O'zJTU, 2-ingliz tili fakulteti 1-kurs talabasi: Yo'ldosheva Farangiz

farangizyoldosheva073@gmail.com

Ilmiy rahbar: Shamshetova Anjim

Annotatsiya: *ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganishning psixologiyasi, uning asosiy omillari haqida so'z boradi. Shuningdek, til o'rganish jarayonida psixik jarayonlarning o'rni haqida ham aytib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *motivatsiya, talant va qobiliyat, emotsional holatlar, til psixologiyasi, xotira, idrok, diqqat.*

Til odamlar o'rtasidagi muloqotning asosiy vositasi hisoblanadi. Til fikrlash jarayonlariga qanday ta'sir qilishini tushunish shaxsning dunyoqarashi, qaror qabul qilish uslubi va xotira qobiliyatlarini anglash uchun muhim. Masalan, ba'zi tillar mavhum tushunchalarni ifodalashda boy imkoniyatlarga ega, bu esa fikrlashga ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, odamlarning gapirish va yozish uslubi orqali shaxsiyatlarini qanday ifodalashlarini o'rganish mumkin. Jumladan, so'z tanlash, gap qurilishi, intonatsiya orqali insonning kayfiyati yoki shaxsiyati haqida ma'lumot olish mumkin. Bundan tashqari, til o'rganish jarayonlarini tushunish orqali o'qitish metodlarini takomillashtirish mumkin. Bu til o'rganishda samaradorlikni oshiradi va o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ya'ni bunday jarayonda o'qituvchi o'quvchilarda xorijiy tillarda erkin muloqotga kirisha olish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini, chet tilidagi matnni idrok etish, yangi so'zlarni xotirada saqlash bilan xorijiy til o'quvchilari chet tilini o'zlashtirish jarayonida ularning o'zga tildagi tafakkuri kengayib borishini ta'minlashning psixologik jihatlarini yaxshi bilishi talab etiladi. Bu turdagi jarayonlarni o'rganish til psixologiyasini o'rganishni taqozo qiladi. Til psixologiyasi-til va psixika o'rtasidagi munosabatlarni, ya'ni tilni tushunish, o'rganish va ishlatish, kommunikatsiya jarayonlarining psixologik mexanizmlarini, til va fikrlash

o'rtasidagi aloqalarni o'rganuvchi ilmiy soha. Bu sohada tadqiqot olib borgan bir qator olimlar mavjud bo'lib, ularning tadqiqotlari tilni o'rganish, tushunish va inson ongiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Masalan, Noan Chomsky lingvistika va til psixologiyasi sohasida inqilob qilgan nazariyalarni ishlab chiqqan. Uning generativ grammatika nazariyasi tilga ichki qobiliyat sifatida yondashadi va insonlar tildan foydalanish uchun o'ziga xos biologik qobiliyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Chomskyning fikriga ko'ra, insonlar til qoidalarini tug'ilgandan bilib oladilar va bu jarayon universal grammatika deb ataladi. Uning ishlari kognitiv ilm-fan, asosan, bolalarning til o'rganish masalasiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, Jean Piaget ham bolalar rivojlanishi va bilim olish jarayonlariga e'tibor bergan. Uning ishlari, jumladan, kognitiv rivojlanish nazariyasi orqali bolalarning til o'rganish jarayoni va tilni tushunishining kognitiv rivojlanishga bog'liqligini tushuntiradi. Lev Vygotsky esa tilning ijtimoiy muhitda rivojlanishini o'rgangan. Uning sotsiokultural nazariyasi til va aqliy rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. U til o'rganishda bolaning yordam olish orqali o'z imkoniyatlarini qanday kengaytirish mumkinligini ko'rsatgan. Elizabeth Bates til rivojlanishini sotsiokultural va kognitiv yondashuvlar orqali o'rganib, interaktivist nuqtai nazarini ilgari surgan. Bu nazariyada odamlar qanday qilib o'z muloqotlari orqali o'zlarining ijtimoiy muhitlarini shakllantirishlari o'rganiladi. Bu nazariya ijtimoiy psixologiya va sotsiologiyada keng tarqalgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, insonlar o'zlari yashayotgan muhitni va undagi voqeliklarni o'zlari yaratgan va belgilagan ma'nolar orqali tushunadi. Bu olimlarning ishlari til psixologiyasi sohasiga katta hissa qo'shgan va til rivojlanishini har xil yondashuvlardan o'rganishga, tilning insonning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni, uni o'rganishning jarayonlari va biologik asoslari kabi masalalarni chuqur tushunishga imkon yaratadi. Shuningdek, til o'rganishning psixologik jihatlari ko'plab omillarni o'z ichiga oladi, masalan: motivatsiya, o'rganish usullari, qobiliyat va talant, emotsional holat, ijtimoiy muhit va o'rganish tajribasi.

Muloqotga bo'lgan ehtiyoj insonlarning eng muhim ehtiyoji hisoblanadi. Odamlar bir-birlari bilan yaxshi aloqa qilishi uchun tilni mukammal bilishlari

darkor. Bu o'rinda motivatsiya muhim o'rin tutadi., chunki u muvaffaqiyatga erishishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Motivatsiya til o'rganish jarayonida sabr-toqatni oshiradi, bu esa muntazam mashg'ulotlarga olib keladi. U ikki taraflama bo'lishi mumkin, ya'ni tashqi muhitdan yoki odamning o'z ichki manfaatlari tufayli yuzaga kelishi mumkin. Masalan, bugungi kunda yurtimizdagi ko'pchilik yoshlar ingliz tilini qunt bilan o'rganishga harakat qilishadi, chunki bir nechta omillar ularni shunday qilishga rag'batlantiradi, ya'ni ular dunyo bilan aloqada bo'lishni, yaxshi ta'lim olishni xohlashadi, chunki ko'plab xalqaro universitetlar va ta'lim dasturlari ingliz tilida o'qitiladi. Shuningdek, texnika va texnologiyalar rivojlangan asrda xorijiy tillarni o'rganish ish bozorida raqobatdoshlikni oshiradi. Bundan tashqari, o'qituvchilar, ota-onalar yangi til o'rganish jarayonida o'rganuvchilarga, farzandlariga til o'rganishning foydalarini aytish orqali ulardagi qiziqishni yanada oshirishlari mumkin. Dars paytida o'qituvchilar o'quvchilarning tilni o'rganish jarayonida bir-birlari bilan muloqot qilishlarini rag'batlantirish, guruhli faoliyatlar va munozaralarni tashkil qilish, qiziqarli va zamonaviy materiallarni qo'llashi orqali ulardagi motivatsiyani oshiradi va bu o'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni tug'diradi. Masalan, bugungi kunda yurtimiz ta'lim muassasalarida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida turli interfaol usullardan foydalaniladi va bunday usullar til o'rganuvchilarning ishtiyoqini oshirib, yangi materiallarni, bilimlarni o'rganishga chorlaydi. Shuningdek, ingliz tilida muvaffaqiyat qozongan insonlar haqida hikoyalar (masalan: Bill Geyts, Stive Jobs) yoki real hayotdan misollarni misollarni keltirish o'quvchida motivatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Motivatsiya til o'rganish muvaffaqiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, til o'rganuvchini tilni tez va samarali o'rganishga undaydi, chunki motivatsiyalangan o'quvchilar o'z maqsadlariga tezroq erishishga harakat qilishadi. Masalan, bir tadqiqot shuni ko'rsatadiki, yuqori motivatsiya ega bo'lgan o'quvchilarning til o'rganishdagi muvaffaqiyati 60 foizga yaqin bo'lsa, past motivatsiyaga ega o'quvchilar uchun bu ko'rsatkich 30-40 foiz atrofida. Til o'rganishga bo'lgan qiziqish o'quvchilarning yangi do'stlar orttirishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Qobiliyat va talant ham til o'rganishdagi muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi. Qobiliyatli insonlar tilni tez va oson o'zlashtirishga moyil bo'lishadi, chunki ulardagi mantiqiy fikrlash va eslab qolish qobiliyati kuchli rivojlangan bo'ladi. Masalan, bunday til o'rganuvchilar analitik fikrlash qobiliyatiga ega bo'lib, yangi grammatik qoidalar, strukturalar, iboralar, birikmalar va so'zlarni tez o'zlashtirib oladilar. Talantli o'quvchilar yangi tilni muloqotda qo'llashda o'zlarini yaxshi namoyon qilishadi. Shuningdek, talant tilni o'rganishda turli ijodiy yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi. Masalan, o'quvchilar o'zlarini turli rollarda tasavvur qilib, muloqotni amaliy ko'nikmalar orqali o'rganishlari yoki ular yangi o'rgangan grammatik strukturalari va so'zlarini qo'llagan holda hikoyalar tuzish orqali bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Shuningdek, yangi tilni o'rganish jarayonida shu tilga oid madaniyat va san'at asarlarini o'rganish o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bunday ijodiy yondashuvlar o'quvchilarga tilni qiziqarliva samarali tarzda o'rganishga imkon beradi. Qobiliyat va talantning til o'rganishdagi o'rni haqida ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borgan. Masalan, Stephen Krashen o'zining kirish nazariyasi va emotsional filter nazariyasida qobiliyat va motivatsiya ahamiyatini ta'kidlaydi. Howard Gardner talantlarning xilma-xilligi borasida so'z yuritadi, bu turli xil qobiliyatlar til o'rganish jarayonida qanday ishlashini tushunishga yordam beradi. Noam Komesky tilning tabiati va inson qobiliyatining til o'rganishdagi ta'siri haqida asosiy fikrlarni ishlab chiqqan. Holliday tilni ijtimoiy kontekstda o'rganish va talantlarning ijtimoiy muhit bilan qanday bog'liqligini o'rgangan.

Emotsional holatlar ham til o'rganishga katta ta'sir ko'rsatadi, chunki o'quvchilarning ruhiy holati ularning muvaffaqiyati va motivatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi. Ular ham ikki turga bo'linadi: ijobiy va salbiy. Ijobiy emotsiyalar til o'rganishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, bunday emotsiyalar xotirani mustahkamlaydi, o'rganishga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. O'quvchilar yangi tillarga yanada ko'proq vaqt ajratadilar. Agar ular o'rganish jarayonini yoqimli deb his qilsalar, bu ularning jarayonga nisbatan munosabatini yaxshilaydi. Bu orqali ular muvaffaqiyatli o'rganish va yangi tajribalarni qabul qilishga tayyor bo'ladilar. Ijobiy hissiyotlar ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. O'quvchilar yangi

tillarni o'rganish jarayonida yanada ijodiy yondashuvni qo'gllashlari mumkin., bu esa innovatsion usullar va yondashuvlar yaratishga yordam beradi. Ijobiy emotsiyalar til o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi hamda o'quvchilarning muvaffaqiyatga erishishini ta'minlaydi. Ammo salbiy emotsiyalar til o'rganish jarayonini qiyinlashtiradi. Masalan, bunday his-tuyg'ular, jumladan, xavotir yoki g'azab o'qituvchilarning diqqatini tarqatishi mumkin. Bu diqqatning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilishini qiyinlashtiradi. Yuqori darajadagi stress xotirani yomonlashtirishi va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Journal of Educational Psychology jurnalidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori darajali xavotir yoki stress bilan o'rganayotgan o'quvchilarda til o'rganish samaradorligi 25-30 foizga pasayadi. Shuningdek, stress o'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchlarini pasaytirishi mumkin. O'zini ifoda etishdan qo'rqish tilni amaliyotda qo'llashdan cheklaydi, ya'ni o'rganilgan tilni boshqalar bilan muloqot qilish orqaligina rivojlantirish mumkin va bunday vaziyatda stressli o'rganuvchilar xatolarga yul qo'yishdan qo'rqishadi. Stress motivatsiyani pasaytirishi, hattoki o'qish jarayonidan voz kechishga olib kelishi mumkin. Salbiy emotsiyalar miyada kognitiv yukni oshiradi va ijtimoiy aloqalarni susaytiradi. Raqobat va qizg'anish kabi salbiy his-tuyg'ular guruhdagi o'zaro aloqalarni buzishi mumkin. Masalan, bir guruh o'quvchilar bir xil vaqtda bir xil tilni o'rganayotganda o'zaro raqobat tuyg'usini his qilishlari mumkin. Jumladan, o'z sinfidagi eng yaxshi baholarga ega bo'lish maqsadida o'quvchilar bir-birini ortda qoldirishga intilishi mumkin. Bu holatda yuqori darajadagi stress o'z-o'ziga ishonchni pasaytiradi va o'zaro munosabatlarni yomonlashtiradi, shuningdek, o'rganish jarayonini qiyinlashtiradi. Raqobat kuchli bo'lganda talabalar bir-birlarini qo'llab-quvvatlashdan ko'ra o'z manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishadi. Bunday holatda ular bir-birlariga yordam berishdan ko'ra o'zlarini ko'rsatishga harakat qilishadi. Bu o'zaro yordam va ijtimoiy aloqalarni susaytiradi, natijada o'rganish jarayonida hamkorlik kam bo'ladi. Shuning uchun bunday salbiy emotsiyalarni bir nechta psixologik yondashuvlar bilan oldini olgan yaxshi. Masalan, insonlar o'z his-tuyg'ularini tushunishi va ularni boshqarishi kerak. His-tuyg'ularning

sabablarini anglash, meditatsiya, yoga, chuqur nafas olish kabi usullar stressni kamaytirishi va e'tiborni tiklashga yordam berishi mumkin. Salbiy fikrlarni ijobiy fikrlar bilan almashtirish lozim, ya'ni "men bu tilni o'rgana olmayman" deyish o'rniga "o'rganish davomida xatolar qilishim tabiiy. Men buni uddalayman" degan qarashni shakllantirish kerak. Maqsadlarni aniq belgilash, ularni kichik belgilarga ajratish va har bir muvaffaqiyatni nishonlash, o'rganishdagi muvaffaqiyatni baholash motivatsiyani oshiradi va salbiy emotsiyalarni kamaytiradi. 2020 yilgi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijobiy emotsiyalar, xususan, quvonch va qoniqish hissi bilan o'qitilgan o'quvchilarning yod olish qobiliyatlari 40 foizga ko'proq bo'larkan (Language Teaching Research).

Shuningdek, xorijiy tillarni o'qitish metodikasi psixologiya bilan ikki taraflama: nutq psixologiyasi va pedagogik psixologiya bilan aloqa bog'laydi. Xorijiy tillarni egallashda ona tilida o'rganilgan o'xshash elementlar, tovush, so'z, gap tuzilishi mavjud nerv bog'lanishlari, boshqa yangi o'rganilayotgan elementlar esa yangi bog'lanishlar paydo etilishi tufayli ikkilamchi belgilar sistemasi yordamida yaratiladi. Chet tillarini o'rganishda psixik jarayonlar - diqqat, idrok, xotira, tafakkur kabilar hisobga olinadi. Ular til o'rganishda mumkin rol o'ynaydi, chunki bu turdagi jarayonlar o'rganuvchining ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash, eslab qolish va uni amaliyotga tatbiq qilish qobiliyatini belgilaydi. Masalan, idrok yordamida insonlar yangi o'rganayotgan tillaridagi tovushlarni, so'zlarni va iboralarni qabul qilishadi va ularning ma'nosini anglaydilar. Yaxshi idrok qilish uchun to'g'ri shakllantirilgan idrok va e'tibor zarur, ya'ni o'rganuvchi yangi so'zlar va grammatik qoidalarni aniq anglab, tushunishi kerak. Shu bilan birgalikda, xotira til o'rganishda eng muhim va asosiy jarayon hisoblanadi, chunki yangi so'zlarni yodlash, grammatik qoidalarni o'zlashtirish, turli talaffuzlarni eslab qolish xotiraning faoliyatiga asoslanadi. Xotira qisqa va uzoq muddatli bo'ladi. Uzoq muddatli xotirada nutqda qo'llanishga tayyor turadigan til materiali saqlanadi. Masalan, o'quvchi biror yangi tilni o'rganayotganda yangi birikmalarni yodlaydi. Keyinchalik bu so'zlar uzoq muddatli xotirada saqlanib, muloqotda kerak bo'lganda avtomatik tarzda esga olinadi va nutqda ishlatiladi. Qisqa muddatli xotira esa nutqda materialni tez

va to'g'ri qo'llashga xizmat qiladi. Applied Linguistics jurnalidagi tadqiqotlarga ko'ra, yuqori eslab qolish qobiliyatiga ega bo'lgan o'rganuvchilar yangi lug'atlarni 30 foiz tezroq yodlashadi. Shuningdek, insonlar tilni muntazam ishlatmasa, taxminan 40 foiz so'z va qoidalar bir necha oy ichida unutilishi mumkin. Agar har kuni 5-10 daqiqa davomida takrorlash amalga oshirilsa, tilni saqlab qolish darajasi 60 foizgacha oshadi. Chet tilini o'rganishda o'quvchilarning psixik jarayonlarni inobatga olishi metodik talablar doirasiga kiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, til o'rganish jarayoni murakkab bo'lib, ko'plab omillar birgalikda o'zaro ta'sir qiladi. O'rganish samaradorligini oshirish uchun motivatsiyani qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy muloqotni rivojlantirish va o'rganish uslublarini hisobga olish muhimdir, chunki til o'rganish psixologiyasining asosiy omillari va psixik jarayonlar birgalikda til o'rganish jarayonini shakllantiradi. Shuningdek, shaxsiy xususiyatga mos yondashish, talant, doimiy mashq qilish va motivatsiyani saqlash ham tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun asosiy vazifani bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent-2012. - 430c.
2. Shamshetova A.K, Melibayeva R.N, Usmanova X.E, Xaydarov I.O. Umumiy psixologiya. Toshkent-2018. - 272c.
3. Noam Chomsky. "Language and Mind".
4. Lev Vygotsky. "Thought and Language".
5. Jean Piaget. "The Psychology of the Child".
6. Abdunaimova M, Matyoqubova.Sh.O. 2023.N=16(100).-C.429-483.
7. Rajabova F.R, Rajabova M.R. Chet tilini o'rganishning psixologik jihatlari. <https://doi.org/10.528, zenodo.6653848.2022.-C.316-327>.